



BUYUK SHOIR VA OLIMNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Kamoliddinov Shavkat Jamshid o'g'li

Termiz Davlat Pedagogika Inistituti

Tarix fakulteti

Milliy istiqlol g'oyasi,

ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati, boy va serqirra ijodiy-ilmiy merosi va davlatimiz tomonidan shoirga berilayotgan e'tibor, bugungi kunda shoir asarlarining yoshlar tarbiyasi va ilmiy hayotida nechog'lik ahamiyatligiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *Mutafakkir, buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi Umar Shayh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi, Uchinchi Renessans, Boburnoma.*

KIRISH

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega.

Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, shoir tug'ilgan kun – 14-fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo'ylab adabiyot va ilm-ma'rifat bayrami sifatida nishonlanmoqda. Boburshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o'tkazilmoqda.

Keyingi yillarda Toshkent va Andijon shaharlarida Bobur Mirzoning muazzam haykallari o'rnatilgani, uning tug'ilib o'sgan yurti – Andijon shahrida Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyi faoliyat ko'rsatayotgani, “Bobur va dunyo” jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida e'tirof etildi.

Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub



o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o'rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.⁶⁷

Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O'zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o'rni va ta'sirini inobatga olib, Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o'rganish va targ'ib etish maqsad qilingan.

Jumladan:

Madaniyat va turizm vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda jamoatchilik vakillarining 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli qarori ijrosi to'g'risida 2023 – yil 3 – fevral 84-8-0-Q/23 Surxondaryo viloyati hokimligining Qarori viloyatimizda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko'plab ilmiy izlanishlarga yo'l ochildi.⁶⁹

Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish to'g'risidagi qarorlari maqolaning dolzarbligiga xizmat qiladi.

USULLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Alisher Navoiy hayoti va ijodini tarixiy-ilmiy va internet manbalar asosida yoritib beriladi.

NATIJALAR

So'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog'liq obida va qadamjolarni, jumladan yodgorlik majmualarini ta'mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish va Bobur Mirzo merosiga mansub qo'lyozma, qadimiy kitoblar, san'at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish ishlari rejaga kiritildi. Shuningdek, Bobur

⁶⁷ Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil. 31-avgust.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli qarori.

⁶⁹ 2023 – yil 3 – fevral 84-8-0-Q/23 Surxondaryo viloyati hokimligining Qarori.



kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq xech qachon xor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi⁷⁰.

Tarix saxifalarini varaqlar ekanmiz, o'zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan buyuk hissasi, ma'naviyati uzoq o'tmishdan dunyoga ma'lum va mashhur bo'lib kelgani ko'zga yaqqol tashlanadi. Millat nomini ulug'lagan allomalar xaqida gap borganda, o'zining iqtidori, aql-zakovati, murakkab taqdiri xamda ochiq ruhiy olami bilan shoir Zahiriddin Muxammad Bobur kishi e'tiborini o'ziga ko'proq tortadi. U davlat arbobi, shoir, sarkarda, olim, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos va ayni paytda hushxulk inson sifatida ko'plab ajoyib fazilatlarga ega bo'lgan.⁷¹

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayh Mirzo oilasida dunyoga keladi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, qavmi-qarindoshlari o'rtasida ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyatda keskinlashgan edi. Adabiyot, tabiat go'zaligiga yoshligidan mehr qo'ygan Bobur otasi saroyda yetuk ustozlardan ilim o'rgandi. Lekin Boburning beg'ubor va betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi 1494-yil otasidan 1506-yilda esa dunyoga keltirgan onasi vafot etdilar. Bobur 12 yoshida otasidan yetim qolgandan keyin Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan. Bobur qalamini qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Muhammad va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. 1504-yilda Shyboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini yaratdi bu voqea Boburga juda ham yomon tas'sir qildi, chunki o'zi tug'ulib o'sgan joyi kindik qoni to'kilgan joydan ajralib begona yurtlarda podshoh bo'lish naqadar og'ir edi.⁷²

Tole yo'q jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerini qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' boldi.

Lekin Bobur 1505-1515 -yillarda Markaziy Osiyoga qaytishiga bir necha bor urinib ko'rdi ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So'ng o'z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519-1525-yillar davomida Hindistonni qo'lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1525-yil aprel oyida Panipatda Bobur 12 minglik qo'shin bilan Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni 100 ming jangchi va fillariga ega qo'shini tor-mor etdi va 1527-yili mart oyida Chitaro hokimi Rano Sango bilan bo'lgan jangda Boburning qo'li baland keldi.

⁷⁰ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998. –B. 86.

⁷¹ Fayziev T. Zahiriddin Muxammad Bobur va uning avlodlari (Boburiylar sulolasining qisqacha shajara tarixi) –T.: Yozuvchi, 1996. 96-b.

⁷² Ibrohimov A. Boburnoma – buyuk asar. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 2000. 80-bet;



Shu yirik g'alabalardan so'ng Bobur Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soldi bu voqealardan so'ng Bobur uzoq yashamadi. 1530-yil 26-dekabrda Agrada vafot etdi. U Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshonda bog'ga dafn etildi. Keyinroq vasiyatiga ko'ra farzandlari uning hokini Kobulga olib kelib dafn etilar. Biroq qisqa bir vaqt ichida "Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish Hind yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yishga homiylik qildi. Bobur yozuvni yanada osonlashtirish, so'zni har xil o'qish nuqsonlarini bartaraf etish maqsadida yangi yozuv Boburiy xatini kashf qildi. Bobur Hindistonni egallagach, adolatli qonunlar chiqardi, jiz'ya (g'ayridinlik solig'i) ni bekor qildi, o'lgan erining tirik xotinini murda bilan birga yoqishni taqiqlaydi. Bog'-rog'lar yaratish, hozirgacha mashhur bolgan me'moriy yodgorliklar, kutubxonalar, karvonsaroylar, qurdirish, ayniqsa uning o'g'illari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Zavohirla'l Nehru Boburiylar davlatidagi madaniy muhitga shunday ta'rif beradi "Bobur Hindistonga kelgandan kiyin kata siljishlar yuz berdi va yangi o'zgarishlar hayotga san'atga arhitekturaga toza havo bahsh etdi madaniyatning boshqa sohalari esa bir-biriga tutashib ketdi deydi. Boburiylar jahon tarixida keng uzoq yillar 332 yil hukumronlik qilgan suloladir. Bugungi kunda Bangladesh Poytaxti Dakka shahrini kezgan kishi "La'lbog'-qala" tarixiy muzeyiga kirib Bobur va Boburiylarga tegishli kiyimlar, harbiy qurol-aslahalar, Ustod Aliquli qo'yg'an toshotar to'plar, miltiqlar, sovut, qilich-qalqonlar o'sha davr kishilarini o'z zamonlari libosida tomosha qilgan kishi Hind va Bangladesh xalqlarining Bobur va Boburiylarga qanchalik hurmat va e'tiborli ekanligini guvohi bo'lamiz. Tarixiy kitoblarda Zahriddin Muhammad Boburning shohlik sarkardalik va olimlar istedodidan tashqari fiqh ilmini mukammal bilgani ham keltiriladi. Nisoriyning "Muzakkiri axbob" (sevimli zodlar yodnomasi) asarida Bobur haqida bunday so'zlar bor: Fiqh masalalarini yana bir risolada mubayyan qilganki yozuvchisi donishmandligidan nishonadir. Turkiy va Forsiyda yahshi she'rlari bordir o'shal fiqh risolasining nomi "Mubayyin"dir. Bobur Mirzo "Mubayyin" asarida eng muhim islomiy ilimlarni saralab, o'zining din olimi, faqih ekanini, o'sha zamon soliq tizimini soliq yig'ishning qonun qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olishni va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. Asar Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan o'g'li Humoyunga atab yozilgan bo'lib Hindiston yurishlari davrida hijriy 928-yil (milodiy 1521-yil) she'riy yo'lda tasnif etilgan.

Bobur besh yilcha xukmronlik qilib, 1530-yil 26-dekabrda vafot etadi. Mana shu qisqa vaqt ichida buyuk saltanat sohibining salomatligi yomonlashib borishiga qaramay, u katta ijobiy ishlarni amalga oshirishga ulgurgan edi.

MUNOZARA



Ma'lumki, Zaxiriddin Muxammad Boburning shox asari - «Boburnoma» Vatanimizda hozirgi joriy alifboda bir necha bor nashr etilgan. Bular orasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyotining 1960-yilda Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzaevlar tomonidan chop etilgan nusxasi shu kunga kadar uzining mukammalligi, ilmiy saviyasi va matnning muallif nusxasiga yaqinligi bilan avvalgi nashrlardan tubdan farq qilib, keng kitobxonlar ommasini uchun ilmiy muomaladagi birdan-bir asosiy manba bo'lib kelgan. Mazkur nashr 1857-yil rus turkshunos olimi N.I. Ilminskiy tomonidan Krzonda chop etilgan «Boburnoma» matni va 1905-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij xonimning Xaydaroboddagi «Salarjang» muzeyida saqlanib kelayotgan qo'lyozma qolmoqda. Uning ijodiy merosini bugungi kunda dunyodagi ko'plab tadqiqotchilar qatorida afg'on va Hind tadqiqotchilar, Pokistonlik va Bangladeshlik olimlar ham qunt bilan o'rganmokdalar. Buyuk vatandoshimiz haqida mazkur mamlakatlarda ko'plab ilmiy asarlar, qissa va romanlar, badiiy filmlar yaratilgani, muzeylar barpo etilgani ayniqsa diqqatga sazovor. Ularning barchasini xar tomonlama o'rganish, targ'ib-u tashviq qilish boburshunos olimlarimiz oldida turgan eng muxim vazifalardan biridir. Xulosa o'rnida Zaxiriddin Muxammad Bobur dunyo tafakkuri tarixida o'zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma'naviy siymosini yarata olgan. Darxaqiqat, mustakillik bizga ana shu ko'xna va betakror tariximizni chuqur o'rganishga, uzligimizni anglashga keng imkoniyat yaratib berdi. Biz bugungi kunda jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Zaxiriddin Muxammad Bobur singari ulug' ajdodlarimiz faoliyati va bebaxo merosining hozirga qadar pinxon yotgan qirralari bilan keng jamoatchilik, butun xalqimizni oshno etish sharafiga muyassar bo'lmoqdamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil. 31-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli qarori.
3. 2023 – yil 3 – fevral 84-8-0-Q/23 Surxondaryo viloyati hokimligining Qarori.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998. –B. 86.
5. Fayziev T. Zahiriddin Muxammad Bobur va uning avlodlari (Boburiylar sulolasining qisqacha shajara tarixi) –T.: Yozuvchi, 1996. 96-b.



6. Ibrohimov A. Boburnoma – buyuk asar. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 2000. 80-bet;